

---

## The Content, Essence and Structural Foundations of Creative Competence

Jumayeva Umida Farhod qizi  
[umidajumaeva1997@gmail.com](mailto:umidajumaeva1997@gmail.com)

PhD student,  
Uzbek State World Languages University

**Annotation** *This article presents a scientific analysis of the content, structure, and psychological-pedagogical foundations of creative competence within the competence-based approach. It examines the role of creativity in education, its importance for personal development, and its link to the modern educational paradigm. Drawing on the views of foreign, CIS, and Uzbek scholars, the motivational-value, cognitive, operational-activity, and reflective-evaluative components of creative competence are explained consistently. The stages of its formation, influencing factors, and necessary pedagogical conditions are discussed. Attention is given to how creative competence appears in professional and pedagogical activity, as well as to methods and approaches for its development and assessment. The author interprets creative competence as a multidimensional system that can be taught, developed, and measured. The importance of creating a supportive creative environment, using problem situations, project-based learning, and organizing reflective activity is emphasized. Theoretical conclusions are connected with national educational practice and supported by practical recommendations for teachers.*

**Keywords** *Creative competence, creativity, competence-based approach, structural components, cognitive activity, reflection, pedagogical technology, creative thinking, divergent thinking, metacognitive skills*

---

## Kreativ kompetensiyaning mazmun-mohiyati va tarkibiy asoslari

Jumayeva Umida Farhod qizi  
[umidajumaeva1997@gmail.com](mailto:umidajumaeva1997@gmail.com)

Tayanch doktorant,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Annotatsiya** *Mazkur maqolada kreativ kompetensiyaning mazmun-mohiyati, tarkibiy tuzilishi hamda psixologik-pedagogik asoslari kompetentlik yondashuvi doirasida ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot kreativlik tushunchasining ta'lim jarayonidagi o'rni, shaxs rivojlanishidagi ahamiyati va zamonaviy ta'lim paradigmasi bilan bog'liqligini yoritadi. Xorijiy, MDH va o'zbek olimlari qarashlariga tayangan holda kreativ kompetensiyaning motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsional-faoliyatli hamda reflektiv-baholovchi komponentlari izchil ochib beriladi. Shuningdek, mazkur kompetensiyaning shakllanish bosqichlari, unga ta'sir etuvchi omillar, zarur pedagogik shart-sharoitlar batafsil muhokama qilinadi. Kreativ kompetensiyaning kasbiy-pedagogik faoliyatda namoyon bo'lish xususiyatlari, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod va texnologiyalar, hamda baholashning metodologik yondashuvlari tahlil etiladi. Tadqiqotda kreativ kompetensiya shaxs kamolotining muhim mezon sifatida asoslanadi va amaliy tavsiyalar ta'lim jarayoniga kreativ yondashuvni samarali tatbiq etishga yo'naltiriladi. Muallif kreativ kompetensiyani o'qitiladigan, rivojlantiriladigan va o'lchanadigan ko'p o'lchovli tizim sifatida talqin qiladi. Maqolada kreativ muhitni yaratish, muammoli vaziyatlar bilan ishlash, loyiha*

*asosida o'qitish va refleksiv faoliyatni tashkil etishning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Nazariy xulosalar milliy ta'lim amaliyoti bilan uyg'unlashtiriladi. Natijalar amaliy tavsiyalar bilan boyitiladi va pedagoglar uchun yo'l-yo'riq beradi.*

**Kalit so'zlar** *Kreativ kompetensiya, kreativlik, kompetentlik yondashuvi, tarkibiy komponentlar, kognitiv faollik, refleksiya, pedagogik texnologiya, ijodiy tafakkur, divergent tafakkur, metakognitiv ko'nikmalar*

---

## **Содержание, сущность и структурные основы креативной компетенции**

**Жумаева Умида Фарход қизи**  
[umidajumaeva1997@gmail.com](mailto:umidajumaeva1997@gmail.com)  
Докторант (PhD),  
Узбекский государственный университет  
мировых языков

**Аннотация** *В статье представлен развернутый научный анализ содержания, структуры и психолого-педагогических основ креативной компетенции в рамках компетентностного подхода. Подробно раскрывается роль креативности в образовательном процессе, её значение для всестороннего развития личности и связь с современной образовательной парадигмой. Опираясь на труды зарубежных, постсоветских и узбекских учёных, автор последовательно описывает мотивационно-ценностный, когнитивный, операционально-деятельностный и рефлексивно-оценочный компоненты креативной компетенции как взаимосвязанные элементы целостной системы. Рассматриваются этапы её формирования, основные влияющие факторы и необходимые педагогические условия, обеспечивающие её эффективное развитие в учебной среде. Особое внимание уделяется проявлению креативной компетенции в профессионально-педагогической деятельности, а также современным методам, технологиям и подходам к её развитию и оценке. Креативная компетенция обосновывается как важнейший критерий личностного и профессионального роста обучающихся. Автор трактует её как многомерную систему, поддающуюся целенаправленному обучению, развитию и объективному измерению в образовательной практике. Подчёркивается значимость создания креативной образовательной среды, использования проблемных ситуаций, проектного обучения и организации рефлексивной деятельности. Теоретические выводы соотносятся с национальной образовательной практикой и дополняются конкретными практическими рекомендациями для педагогов.*

**Ключевые слова** *Креативная компетенция, креативность, компетентностный подход, структурные компоненты, когнитивная активность, рефлексия, педагогическая технология, творческое мышление, дивергентное мышление, метакогнитивные навыки*

## Kirish

XXI asr – bilim iqtisodiyoti, sun'iy intellekt va tez o'zgaruvchan global muhit asri. Ushbu sharoitda mutaxassisdan nafaqat egallangan bilimlar, balki muammoni sezish, yangicha yechimlar taklif etish va o'zgargan vaziyatlarga moslashish ko'nikmalari talab etilmoqda. Aynan shu talablar majmui ilmiy jamoatchilikni «kreativ kompetensiya» tushunchasi atrofida chuqur tadqiqotlar olib borishga undadi. Bugungi kunda kreativ kompetensiya nafaqat san'at yoki dizayn sohasida, balki muhandislik, pedagogika, tibbiyot, boshqaruv va ijtimoiy sohalar kabi barcha kasbiy yo'nalishlarda hal qiluvchi omil sifatida tan olinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish sohasida olib borilayotgan islohotlar doirasida shaxsning kreativ salohiyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Jumladan, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun (2020), «Maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha uzluksiz ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi» (2021) va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni (2016) matnlarida ijodiy, tanqidiy va innovatsion tafakkurli fuqarolarni shakllantirish davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida ko'rsatilgan. Ushbu hujjatlar kreativ kompetensiyani milliy ta'lim tizimiga joriy etishning qonuniy-me'yoriy zaminini yaratadi.

Shunga qaramay, kreativ kompetensiyaning ilmiy-nazariy mohiyati, tarkibiy tuzilishi va uni shakllantirish metodologiyasi masalalari hali yetarlicha tadqiq etilmagan. Mavjud ilmiy adabiyotlarda kreativlik ko'pincha psixologik xususiyat (trait) yoki qobiliyat sifatida o'rganilgan bo'lsa, uni kompetensiya sifatida – ya'ni o'qitiladigan, o'lchanadigan va rivojlantiriladigan ko'p o'lchovli hodisa sifatida – tadqiq etish nisbatan yangi yo'nalish hisoblanadi. Biz ushbu maqolada aynan ana shu bo'shliqni to'ldirish – kreativ kompetensiyaning mazmunini aniq

belgilash, tarkibiy modelini ilmiy asoslash va uni shakllantirish shartlarini ko'rsatish – maqsadini ko'zladik.

Tadqiqotning metodologik asosini quyidagi yondashuvlar tashkil etadi: kompetentlik yondashuvi (J. Raven, A.V. Xutorskoy, I. Yo'ldoshev), faoliyat nazariyasi (L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev), kreativlik psixologiyasi (J.P. Gilford, E.P. Torrance, M. Csikszentmihalyi) va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi (K. Rogers, D.B. Bog'yavlenskaya). Ushbu yondashuvlarning sintezi bizga kreativ kompetensiyani bir tomonlama emas, balki ko'p o'lchovli va tizimli tarzda tahlil qilish imkonini berdi.

### 1. Kompetensiya va kreativlik tushunchalarining ilmiy-tarixiy talqini

#### 1.1. «Kompetensiya» kategoriyasining ilmiy tadixi

«Kompetensiya» (lotincha: *competentia* – muvofiqliq, mos kelish) tushunchasi pedagogika faniga 1960-70-yillarda, ayniqsa Amerika va G'arbiy Yevropa ta'lim islohotlari davrida kirib kelgan. Dastlab ushbu tushuncha kasbiy ta'lim sohasida qo'llanilib, ma'lum kasbiy vazifalarni bajarishga zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuini anglatgan. Biroq keyinchalik uning ma'nosi kengayib, shaxsiy, ijtimoiy va kognitiv xususiyatlarni ham qamrab ola boshladi.

Amerikalik psixolog J. Raven (1984) kompetensiyani motivatsion, kognitiv va xulq-atvor elementlarini o'z ichiga olgan samarali faoliyat qobiliyati sifatida ta'riflagan. U o'zining «Zamonaviy jamiyatda kompetensiya» asarida insonning biror muhim sohadagi yuqori motivatsiyasi bilan birlashgan qobiliyatlarini kompetensiya deb ataydi (Raven, 1984). Nemis didaktigi D. Mertens (1974) «kalit kvalifikatsiyalar» (*Schlüsselqualifikationen*) tushunchasini kiritib, ta'lim maqsadi faqat maxsus bilimlar emas, balki turli hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladigan umumiy qobiliyatlar bo'lishi kerakligini asoslab berdi (Mertens, 1974).

MDH pedagogika fanida kompetensiya nazariyasiga eng katta hissa qo'shgan olim A.V. Xutorskoy «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalarini qat'iy farqlaydi: kompetensiya – ijtimoiy jihatdan talab qilinadigan, oldindan berilgan mezonlarga muvofiq shakllantirilgan bilim, ko'nikma, faoliyat usullari va munosabatlar majmuasi; kompetentlik esa – shaxsning ushbu kompetensiyalarni real hayot va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli qo'llash qobiliyati (Xutorskoy, 2003). Ushbu farq kreativ kompetensiyani o'rganishda ham muhimdir: biz kreativ kompetensiyani shaxsda shakllantirishga harakat qilamiz, kreativ kompetentlikni esa – uni namoyon etish darajasi sifatida o'lchaymiz.

O'zbek pedagogika fanida kompetentlik yondashuvini milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish masalalarini I. Yo'ldoshev, N. Muslimov, R. Mavlonova va boshqalar chuqur o'rganishgan. I. Yo'ldoshev kasbiy ta'limda kompetentlik yondashuvining amaliy-metodologik asoslarini ishlab chiqib, uning milliy ta'lim standartlarida aks ettirilishi bo'yicha ilmiy tavsiyalar bergan (Yo'ldoshev, 2005). N.N. Azizxo'jayeva esa pedagogik kompetensiyalar tizimida kreativ komponentning alohida o'rnini asoslab, o'qituvchi shaxsida kreativ kompetensiyani shakllantirish metodikasini ishlab chiqqan (Azizxo'jayeva, 2005).

### 1.2. «Kreativlik» tushunchasining ilmiy talqini va tadqiqot yo'nalishlari

Kreativlik (ingl. creativity, lotincha: creatio – yaratmoq) tushunchasi psixologiya va pedagogikada XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil tadqiqot ob'yektiga aylangan. Ilk ilmiy ta'riflardan biri Amerikalik psixolog J.P. Gilfordga tegishli bo'lib, u kreativlikni divergent tafakkurning ifodasi sifatida tavsiflagan va uning tarkibiga to'rt asosiy xususiyatni kiritgan: ravonlik (fluency – qisqa vaqtda ko'p g'oyalar hosil qilish), moslashuvchanlik (flexibility – turli kategoriyalarga o'tish qobiliyati), originallik (originality – noodatiy, yangi g'oyalar yaratish) va elaboratsiya (elaboration – g'oyalarni batafsil ishlab chiqish) (Guilford, 1967). Ushbu

model kreativlikni o'lchash sohasida bugungi kunga qadar asosiy mezon bo'lib xizmat qilmoqda.

E.P. Torrance (1974) kreativlikni yanada kengroq doirada tushunib, uni muammolarni his etish, kamchiliklarni sezish, bilimlar orasidagi bo'shliqlarni topish, taxminlar va gipotezalar ilgari surish, ularni sinab ko'rish va natijalarni boshqalarga etkazish jarayoni sifatida ta'riflagan (Torrance, 1974). Torrance yaratgan «Ijodiy tafakkur testlari» (TTCT) 50 yildan ortiq vaqt davomida 40 dan ziyod mamlakatda qo'llanilgan va kreativlikni diagnostika qilishning eng keng tarqalgan vositasiga aylangan.

Vengriya-Amerikalik psixolog M. Csikszentmihalyi (1996) «sistemali nazariya» (systems theory of creativity) doirasida kreativlikni uch tizimning o'zaro ta'siri mahsuli sifatida tushuntiradi: shaxs (individual), soha (domain – madaniy simvollar va qoidalar tizimi) va ijtimoiy muhit (field – sohani baholovchi ekspertlar guruhi). Ushbu yondashuv kreativlikni faqat shaxs ichidagi psixologik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida ko'rishga imkon beradi (Csikszentmihalyi, 1996).

Rossiyalik psixolog Ya.A. Ponomaryov (1976) kreativlikni tafakkur rivojlanishining eng yuqori bosqichi sifatida ko'rib, uni «psixologik mexanizm» nazariyasi orqali izohlaydi. Uning fikricha, ijodiy mahsulot – bu ongli maqsad va ongsiz jarayonlarning birlashuvidan paydo bo'ladi. D.B. Bog'yavlenskaya esa kreativlikni «intelektual faollik» (intellectual initiative) tushunchasi bilan bog'lab, shaxsning berilgan vazifadan tashqariga chiqib, o'z-o'zicha yangi muammolarni qo'yish va hal etish qobiliyatiga urg'u beradi (Bog'yavlenskaya, 2002).

## 2. Kreativ kompetensiyaning mazmuni va uning farqli xususiyatlari

### 2.1. Kreativ kompetensiyaning ta'rifi va uning boshqa tushunchalardan farqi

Ilmiy adabiyotda «kreativlik», «ijodkorlik», «kreativ qobiliyat», «kreativ kompetensiya» va «kreativ kompetentlik» tushunchalari ko'pincha sinonim sifatida

qo'llanilsa-da, ularni ilmiy jihatdan farqlash zarur. Kreativlik – shaxsning yangilik yaratish potentsiali va ko'lami; kreativ qobiliyat – mazkur potentsialning biologik va psixologik negizi; kreativ kompetensiya – ijtimoiy talablar va ta'lim jarayoni natijasida shakllangan, faoliyatda namoyon bo'luvchi ko'p o'lchovli tizim; kreativ kompetentlik esa – ushbu tizimning muayyan vaziyatda muvaffaqiyatli qo'llanilish darajasi.

Biz o'z tadqiqotimizda kreativ kompetensiyaning quyidagicha ta'riflaymiz: kreativ kompetensiya – bu shaxsning muammoli vaziyatlarda yangi, original va ijtimoiy ahamiyatli yechimlar yaratish, bilim va tajribasini noodatiy tarzda qo'llash, turli kontekstlarda moslashuvchan va samarali ijodiy faoliyat ko'rsatish hamda bu jarayonni ongli, maqsadli va mustaqil boshqarish qobiliyatlarining yaxlit tizimi. Ushbu ta'rif bir necha olimlarning konsepsiyalarini sintez qilgan holda shakllantirildi va quyidagi belgilar bilan ajralib turadi: birinchidan, kompetensiya tug'ma xususiyat emas, balki ta'lim jarayonida shakllanadigan dinamik tizimdir; ikkinchidan, u faqat bilim emas, balki motivatsion, kognitiv, operatsional va refleksiv elementlarni birlashtiradi; uchinchidan, u muayyan ijtimoiy kontekstda namoyon bo'lib, ijtimoiy ahamiyatli natijalar beradi.

R. Sternberg o'zining triarhik intellekt nazariyasida (triarchic theory of intelligence) kreativ intellektni – yangilikni yaratish va muammoni noodatiy usulda ko'rish qobiliyatini – alohida komponent sifatida ajratib ko'rsatadi (Sternberg & Lubart, 1995). Uning «Investitsion nazariyasi» (Investment Theory of Creativity) kreativ shaxsni qiymat past bo'lgan g'oyalarni «sotib oluvchi» va ularni katta «foyda»ga aylantirib «sotuvchi» investor sifatida tasvirlaydi. Bu metafor kreativ kompetensiyaning amaliy-strategik jihatini yorqin ifodalaydi.

## 2.2. Kreativ kompetensiyaning psixologik-pedagogik asoslari

Kreativ kompetensiyaning psixologik-pedagogik asoslarini tushunish uchun L.S.

Vigotskiyning «yaqin rivojlanish zonasi» (zona blijayshego razvitiya) tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Vigotskiy fikricha, bola mustaqil bajara olmaydigan, ammo yetakchi yordamida bajarishi mumkin bo'lgan faoliyat sohasi – bu eng samarali ta'lim yuzasidir (Vigotskiy, 1982). Kreativ kompetensiyaning rivojlantirish ham aynan ushbu zona doirasida amalga oshiriladi: o'quvchi o'z bilganidan bir qadam oldinga chiqib, yangi muammo bilan to'qnashadi va uni hal etish orqali kompetensiyasini kengaytiradi.

A. Maslouning motivatsion ehtiyojlar piramidasi kreativ kompetensiyaning motivatsion asosini tushunishda katta ahamiyatga ega. Uning fikricha, o'z-o'zini ro'yobga chiqarish (self-actualization) – bu insonning yaratish, kashf etish va o'zini to'la namoyon etish ehtiyoji – piramidaning eng yuqori pog'onasida turadi. Biroq Maslou bu ehtiyoj faqat quyi ehtiyojlar — fiziologik xavfsizlik, tegishlilik va hurmatlilash – qondirilgandan keyin paydo bo'lishini ta'kidlaydi (Maslow, 1954). Bu pedagogik jihatdan muhim xulosa: kreativ kompetensiyaning rivojlantirish uchun avvalo o'quvchi uchun psixologik xavfsiz, qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish zarur.

K. Rogersning gumanistik psixologiyasi kreativ faoliyat uchun zarur shartlar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: psixologik xavfsizlik (psychological safety), psixologik erkinlik (psychological freedom) va shaxsiy tajribaning to'la qabul qilinishi (unconditional positive regard). Rogers fikricha, kreativlik har bir insonning tabiiy imkoniyati bo'lib, uni ko'rsatishga to'sqinlik qiluvchi tashqi sharoitlar yo'qotilganda u o'z-o'zicha ochiladi. Ushbu g'oya zamonaviy kreativ pedagogikaning asosiy prinsiplaridan biriga aylangan.

## 3. Kreativ kompetensiyaning tarkibiy modeli va komponentlarining tavsifi

3.1. *Tarkibiy model haqida umumiy ma'lumot*  
Ilmiy adabiyotda kreativ kompetensiyaning tarkibiy modellariga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Bir guruh olimlar (Guilford, Torrance) kognitiv

yondashuvni ustuvor bilib, kreativlikni asosan tafakkur jarayoni sifatida o'rgansa, boshqalari (Maslow, Rogers) motivatsion-shaxsiy jihatlarni birinchi o'ringa qo'yadi. Faoliyat nazariyasi (Vigotskiy, Leontyev) esa kreativlikni birinchi navbatda amaliy-faoliyatli jarayon sifatida tavsiflaydi. Biz tadqiqot davomida mazkur yondashuvlarni sintez qilib, kreativ kompetensiyaning to'rt komponentli tarkibiy modelini taklif etdik. Ushbu model kreativ kompetensiyani yaxlit, dinamik va o'zaro bog'liq elementlar tizimi sifatida ko'rsatadi.

### 3.2. Motivatsion-qadriyatli komponent

Motivatsion-qadriyatli komponent kreativ kompetensiyaning eng chuqur, «ichki» qatlamini tashkil etadi. U shaxsning ijodiy faoliyatga bo'lgan ichki intilishi, qiziqishi, yangilikka moyilligi, muammolarni musobaqa emas, balki qiziqarli vazifa sifatida idrok etish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tashqi rag'bat (baho, mukofot, tan olinish) kreativ faoliyatni vaqtincha oshirishi mumkin, biroq uzoq muddatli kreativlik uchun ichki motivatsiya hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ayniqsa, E. Disi va R. Ryanning «o'z-o'zini belgilash nazariyasi» (Self-Determination Theory) doirasida o'tkazilgan tadqiqotlar tashqi rag'batning ba'zan kreativlikni pasaytirishi (overjustification effect) mumkinligini isbotlagan.

Motivatsion komponentning muhim qismi – xavf-xatarni qabul qilish tayyorligi (risk tolerance). Kreativ faoliyat har doim noaniqlik, yangilik va muvaffaqiyatsizlik ehtimolini o'z ichiga oladi. Shaxs yangilik yaratishda muvaffaqiyatsizlikka uchraganida uni shaxsiy mag'lubiyat emas, balki o'rganish imkoniyati sifatida qabul qila olish kreativ kompetensiyaning tarkibiy belgisi hisoblanadi. K. Dweck (2006) «o'sish tafakkuri» (growth mindset) kontsepsiyasida ushbu xususiyatni «qobiliyatlar rivojlanadi» degan ishonch sifatida tavsiflaydi va u kreativ faollikning asosi ekanligini empirik ma'lumotlar orqali isbotlaydi.

O'zbek ta'lim tizimida motivatsion komponentni rivojlantirish bo'yicha alohida e'tibor talab etiladi. Uzoq yillar davom etgan

reproduktiv (takrorlovchi) ta'lim an'anasi natijasida o'quvchilarda «to'g'ri javob» izlash stereotipi kuchli shakllangan. Shu sababli motivatsion-qadriyatli komponentni rivojlantirish uchun avvalo bu stereotipni yo'qotish, yangilik va original fikrni qadrlash madaniyatini shakllantirish zarur.

### 3.3. Kognitiv komponent

Kognitiv komponent kreativ kompetensiyaning intellektual asosini tashkil etadi va quyidagi qo'yilish elementlarni o'z ichiga oladi: (a) divergent tafakkur – bitta muammoga ko'p xil yechimlar topish qobiliyati; (b) assotsiativ tafakkur – bir-biriga aloqasiz ko'rinadigan tushunchalar o'rtasida yangi bog'liqliklar o'rnatish; (c) metakognitiv ko'nikmalar – o'z tafakkur jarayonlarini kuzatish va boshqarish; (d) bilimlarni transfer qilish – bir sohadagi bilimlarni butunlay boshqa sohaga ko'chirish; (e) analogik tafakkur – turli sohalardagi o'xshashliklarni ko'rish orqali yangi g'oyalar hosil qilish.

V.N. Drujinin (1999) kognitiv komponentni tahlil qilib, intellekt va kreativlik o'rtasidagi munosabatni «daraja nazariyasi» (threshold theory) orqali izohlaydi: intellektning ma'lum darajasidan (odatda IQ 120 atrofida) pastda intellekt va kreativlik o'rtasida sezilarli korrelyatsiya mavjud, yuqorisida esa kreativlik mustaqil, intellektdan alohida omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu kuzatuv pedagogika uchun muhim xulosa beradi: intellektual bazani shakllantirish kreativ kompetensiyaning zaruriy, biroq yetarli sharti emas.

Kognitiv komponentda alohida e'tibor talab etuvchi jihat – metakognitiv ko'nikmalar. J. Flavell (1979) tomonidan kiritilgan «metakognitsiya» tushunchasi – bu insonning o'z bilish jarayonlari haqida bilishi va ularni boshqara olishi. Kreativ muammoni hal etishda metakognitsiya shaxsga qaysi strategiyani qo'llash, qachon yangi yondashuv izlash va natijani qanday baholash kerakligini aniqlashda yordam beradi. Zamonaviy tadqiqotlar metakognitiv ko'nikmalarni maqsadli o'qitish kreativ faoliyat samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatmoqda.

### 3.4. Operatsional-faoliyatli komponent

Operatsional-faoliyatli komponent kreativ kompetensiyaning «amaliy» qatlami bo'lib, shaxsning ijodiy g'oyalarni real faoliyatga tatbiq etish usul va strategiyalarini egallash hamda ularni moslashuvchan tarzda qo'llay olish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Bu komponent kreativlikni faqat tafakkur jarayoni sifatida emas, balki amaliy natijaga yo'naltirilgan faoliyat sifatida ko'rishni ta'minlaydi.

Operatsional komponentning asosiy elementlari qatoriga quyidagilar kiradi: muammoni aniqlash va qo'yish ko'nikmalari (problem finding), turli ijodiy muammo yechish strategiyalarini bilish (brainstorming, TRIZ, dizayn-tafakkur va h.k.), g'oyani prototipga aylantirish va sinovdan o'tkazish qobiliyati, jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil etish hamda ijodiy loyihani boshidan oxirigacha olib borish ko'nikmalari. Bu elementlarning barchasi yig'indisi shaxsga nafaqat g'oya hosil qilish, balki uni ijtimoiy ahamiyatli mahsulotga aylantirish imkonini beradi.

Shunisi diqqatga sazovorki, bir qancha tadqiqotlar (Amabile, 1996; Csikszentmihalyi, 1996) ko'rsatganidek, sohaviy bilimlar (domain knowledge) kreativ kompetensiyaning operatsional komponenti uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. Sohoni chuqur bilmaydigan odam sohada chinakam yangilik yarata olmaydi – u «yangi» deb hisoblagan narsa aslida allaqachon ma'lum bo'lgan bo'lishi mumkin. Shu bois kreativlikni «bo'sh sahifadan» iborat erkin o'yin sifatida emas, balki chuqur bilimga tayangan faoliyat sifatida ko'rish to'g'riroq. Bu nuqtai nazar «sohaviy bilim + ijodiy qo'llash» formulasini kreativ kompetensiyaning yadrosiga joylashtiradi.

### 3.5. Refleksiv-baholovchi komponent

Refleksiv-baholovchi komponent kreativ kompetensiyaning eng yuqori, «integratsion» qatlamini tashkil etib, shaxsning o'z ijodiy faoliyatini kuzatish, baholash, tahlil qilish va uni takomillashtirishga yo'naltirish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. G.P. Shchedrovitskiy (1995) refleksiyani «faoliyatdan chiqish» va «faoliyatni

faoliyat sifatida ko'rish» imkoniyati sifatida ta'riflaydi. Kreativ kompetensiyada refleksiv komponent shaxsga o'z ijodiy jarayonining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, muvaffaqiyatsizlikdan o'rganish va tajribasini umumlashtirish imkonini beradi.

Refleksiv komponent faqat o'z faoliyatiga nisbatan emas, balki boshqalarning faoliyatini baholash va ulardan o'rganish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Bu konstruktiv tanqidiy tafakkur (critical thinking) bilan uzviy bog'liq. Kreativ shaxs nafaqat yangi g'oya taklif qiladi, balki uni to'g'ri baholaydi, muqobil variantlar bilan solishtiradi va eng samaralisini tanlaydi. Ushbu jarayon ilmiy adabiyotda «konvergent tafakkur» deb ataladi va u divergent tafakkur bilan birgalikda kreativlikning to'liq tsiklini hosil qiladi.

## 4. Kreativ kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shartlari va texnologiyalari

### 4.1. Ta'lim muhitiga qo'yiladigan talablar

Kreativ kompetensiyani rivojlantirish uchun avvalo mos pedagogik muhit zarur. Biz «kreativ ta'lim muhiti» deganda o'quvchi/talabaning ijodiy faolligini uyg'otuvchi, qo'llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi barcha moddiy, psixologik va didaktik shartlar majmuini tushunamiz. Bunday muhit uchun bir qancha zaruriy belgilar ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, psixologik xavfsizlik (psychological safety). A. Edmondson (1999) tomonidan ilgari surilgan ushbu tushuncha jamoadagi insonning yangi g'oyalar bildirish, savol berish, xatoga yo'l qo'yish va o'z fikrini himoya qilishda jazoga duchor bo'lmasligiga ishonch sifatida ta'riflanadi. Kreativ ta'lim muhitida o'quvchi o'zining noodatiy g'oyasi uchun tanqid qilinmasligini bilishi, xatosidan yerga urmasligini his etishi zarur. Bu shart bajarilgandagina ichki motivatsiya faollashadi va haqiqiy ijodiy faollik boshlanadi.

Ikkinchidan, muammoli vaziyatlar va real loyihalar bilan ishlash imkoniyati. Tadqiqotlar ko'rsatdiki (Barron & Harrington, 1981),

kreativlik real muammolarni hal etish jarayonida, «hayot bilan bog'liq» vazifalarni bajarishda eng faol rivojlanadi. Shu sababli o'quv jarayoniga ijtimoiy loyihalar, startap musobaqalar, ilmiy tadqiqot elementlari va amaliy ishlab chiqarish bilan hamkorlikni kiritish kreativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Uchinchi, o'qituvchining kreativ namuna bo'lishi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi o'zi muammolarga qiziqish bilan yondashsa, noodatiy savollar bersa va yangi yechimlar izlasa, o'quvchilarda ham xuddi shunday faollik shakllanadi. K. Robinson o'qituvchi shaxsini ta'limdagi kreativlik uchun birinchi omil sifatida ko'rsatadi va «kreativlikni o'rgatish uchun avvalo kreativ o'qituvchi bo'lish zarur» degan fikrni ilgari suradi (Robinson, 2011).

#### 4.2. Kreativ kompetensiyani rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalar

Zamonaviy pedagogika kreativ kompetensiyani rivojlantirish uchun bir qancha samarali texnologiyalarni taklif etadi. Biz ulardan eng muhimlarini ko'rib chiqamiz.

Muammoli ta'lim texnologiyasi (Problem-Based Learning, PBL) – o'quvchilar real hayotiy muammoni hal etish jarayonida zaruriy bilimlarni mustaqil o'zlashtiradilar. Bu texnologiya birinchi marta tibbiyot ta'limida (McMaster universiteti, Kanada, 1969) qo'llanilgan bo'lib, hozirda dunyoning yetakchi universitetlarida keng tarqalgan. PBL kreativ kompetensiyaning barcha to'rt komponentini bir vaqtning o'zida rivojlantiradi.

Dizayn-tafakkur (Design Thinking) metodologiyasi – foydalanuvchini markazga qo'yib muammoni empatiya bilan tushunish, muammoni aniq belgilash, g'oyalar generatsiyasi, prototip yaratish va sinovdan o'tkazish bosqichlarini ketma-ket amalga oshirish. D School (Stanford universiteti) tomonidan tizimlashtirilib, keng qo'llanilayotgan ushbu yondashuv operatsional-faoliyatli va reflektiv komponentlarni rivojlantirishda ayniqsa samarali.

Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning) va STEM/STEAM yondashuvi o'quvchilarni fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika sohalari kesishmasida real muammolarni hal etishga yo'naltiradi. O'zbekistonda so'nggi yillarda tatbiq etilayotgan ushbu yondashuv milliy ta'lim tizimida kreativ kompetensiyani rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda.

#### 4.3. Kreativ kompetensiyani baholash muammosi

Kreativ kompetensiyani baholash – ilmiy va amaliy jihatdan hali to'liq hal etilmagan muammo. An'anaviy test va imtihon usullari kreativlikni to'g'ri o'lcha olmaydi, chunki ular ko'pincha yagona «to'g'ri javob» printsipligiga asoslanadi. Shu munosabat bilan biz quyidagi baholash yondashuvlarini amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: portfel baholash (portfolio assessment) – o'quvchining vaqt o'tishi bilan ijodiy o'sishini kuzatish; jarayon va mahsulotni birga baholash (process + product); rubrika asosida ko'p mezonli baholash; o'z-o'zini baholash va tengdosh baholash (peer assessment).

Xalqaro PISA 2022 testida birinchi marta «kreativ fikrlash» (creative thinking) alohida komponent sifatida kiritildi va 64 mamlakat o'quvchilari ishtirokida o'tkazildi (OECD, 2021). Natijalar shuni ko'rsatdiki, kreativ kompetensiyasi yuqori bo'lgan o'quvchilar boshqa akademik sohalarda ham yuqori ko'rsatkichlarni namoyish etdi. Bu kreativ kompetensiyani ta'lim standartlarining majburiy elementi sifatida joriy etishning xalqaro ilmiy asosini yanada mustahkamladi.

#### Xulosa va Tavsiyalar

Biz amalga oshirgan ilmiy-nazariy tahlil natijasida kreativ kompetensiya to'g'risida bir qancha muhim xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Birinchi, kreativ kompetensiya – bu tug'ma qobiliyat emas, balki maqsadli ta'lim jarayonida shakllanadigan, rivojlanadigan va o'lchanganiga bo'lgan ko'p o'lchovli dinamik tizim. Uning tarkibida motivatsion-qadriyatli,

kognitiv, operatsional-faoliyatli va reflektiv-baholovchi komponentlar o'zaro uzviy bog'liq holda mavjud bo'lib, ularning har birini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Ikkinchidan, kreativ kompetensiyani shakllantirish faqat alohida «kreativlik darslarini» joriy etish bilan emas, balki butun ta'lim jarayonini kreativlikka qulay tarzda qayta yo'naltirish – muhit, metodika va baholash tizimini birgalikda o'zgartirish – orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu sistematik va uzoq muddatli jarayon bo'lib, o'qituvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishdan boshlanishi kerak.

Uchinchidan, kreativ kompetensiya milliy-madaniy kontekstdan ajralmas holda rivojlanadi. O'zbek milliy ta'lim tizimida kreativ kompetensiyani rivojlantirishda milliy qadriyatlar, an'anaviy hunarmandchilik va xalq ijodi tajribalarini zamonaviy innovatsion

yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish alohida imkoniyat bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchidan, kreativ kompetensiyani baholashda an'anaviy test usullaridan voz kechilib, jarayon va mahsulotni kompleks, ko'p mezonli baholash yondashuvi qo'llanilishi lozim. Portfel baholash, o'z-o'zini va tengdosh baholash kreativ kompetensiyani o'lchashda eng samarali usullar sifatida tavsiya etiladi.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar istiqbolli deb hisoblaymiz: kreativ kompetensiyani rivojlantiruvchi xususiy metodikalar va o'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda ularning samaradorligini empirik tekshirish; sun'iy intellekt texnologiyalari asosida kreativ kompetensiyani diagnostika qilish vositalarini yaratish; o'zbek maktab va oliy o'quv yurtlari sharoitida kreativ kompetensiyaning shakllanish mexanizmlarini longitudinal tadqiq etish.

## References:

1. Azizxo'jayeva, N. N. (2005). *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat*. Toshkent: O'qituvchi.
2. Bog'yavlenskaya, D. B. (2002). *Psixologiya tvorcheskih sposobnostey*. Moskva: Akademiya.
3. Csikszentmihalyi, M. (1996). *Creativity: Flow and the psychology of discovery and invention*. New York: HarperCollins.
4. Guilford, J. P. (1967). *The nature of human intelligence*. New York: McGraw-Hill.
5. Maslow, A. H. (1954). *Motivation and personality*. New York: Harper & Row.
6. Mertens, D. (1974). Schlüsselqualifikationen. *Mitteilungen aus der Arbeitsmarkt- und Berufsforschung*, 7(1), 36–43.
7. OECD. (2021). *Creative thinking in PISA 2022: Framework*. Paris: OECD Publishing.
8. Ponomaryov, Ya. A. (1976). *Psixologiya tvorchestva*. Moskva: Nauka.
9. Raven, J. (1984). *Competence in modern society: Its identification, development and release*. London: H. K. Lewis.
10. Robinson, K. (2011). *Out of our minds: Learning to be creative*. Chichester: Capstone Publishing.
11. Sternberg, R. J., & Lubart, T. I. (1995). *Defying the crowd: Cultivating creativity in a culture of conformity*. New York: Free Press.
12. Torrance, E. P. (1974). *Torrance tests of creative thinking*. Bensenville: Scholastic Testing Service.
13. Vigotskiy, L. S. (1982). *Sobranie sochineniy*. Tom 2. Moskva: Pedagogika.
14. Xutorskoy, A. V. (2003). Klyuchevye kompetensii kak komponent lichnostno-orientirovannoy paradigmy obrazovaniya. *Narodnoe obrazovanie*, 2, 58–64.
15. Yo'ldoshev, I. (2005). *Kasbiy ta'limda kompetentlik yondashuvi*. Toshkent: Fan.